

**“O‘ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI:
HOLAT, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”**

Qodirov Abubakr Nodirxon o‘g‘li

*Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)
yo‘nalishi 2- bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Egamberdiyev Muzaffar

*Alfraganus Alfraganus University
Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 14.09.2024

Revised: 15.09.2024

Accepted: 16.09.2024

KALIT SO‘ZLAR:

*Urbanizatsiya,
shaharsozlik,
migratsiya,
infratuzilma, iqtisodiy
rivojlanish, Yangi
Toshkent..*

Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida urbanizatsiya jarayonining so‘nggi yillardagi holati, asosiy yo‘nalishlari va iqtisodiy-ijtimoiy ta‘siri tahlil qilinadi. Urbanizatsiya jarayonining salbiy va ijobiy oqibatlari, mavjud muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi. Grafiklar va statistik ma‘lumotlar orqali jarayon dinamikasi yoritilgan.

KIRISH


Urbanizatsiya bugungi kunda dunyo miqyosida kuchli ijtimoiy-iqtisodiy hodisaga aylangan. O‘zbekistonda ham ushbu jarayon jadal tus olmoqda. Davlat siyosatida shaharlarning zamonaviy infratuzilmasini rivojlantirish, yangi uy-joy massivlarini barpo etish, transport tizimini modernizatsiyalash asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Shuningdek, “Yangi Toshkent” loyihasi O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonining yangi bosqichga o‘tganidan dalolat beradi.

ASOSIY QISM

Urbanizatsiya – bu aholining shaharlarda to‘planishi, iqtisodiy faoliyat markazlarining rivojlanishi, infratuzilmaning kengayishi va turmush tarzining o‘zgarishini bildiradi. Bu jarayon har qanday mamlakatda sanoatlashuv, xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishi va modernizatsiya bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekistonda urbanizatsiya darajasi va holati bilan quyidagi grafik va ma‘lumotlar orqali tanishamiz:

(1-rasm)



Yuqoridagi grafikdan ko'rinib turibdiki, 2015–2024 yillar oralig'ida shaharlarda yashovchi aholining ulushi izchil o'sib bormoqda

Izoh: O'sish sabablari orasida iqtisodiy migratsiya, ishlab chiqarish korxonalarining shaharlarda to'planishi va ijtimoiy xizmatlar sifati muhim rol o'ynaydi.

- Aholining qariyb 50% dan ortig'i hozirda shaharlarda yashaydi.
- Urbanizatsiya sur'ati tobora tezlashmoqda, ayniqsa yirik shaharlar – Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon va Farg'ona kabi markazlarda.
- Davlat siyosati orqali yangi shaharlar, zamonaviy aholi punktlari, turar-joy massivlari qurilmoqda.

Urbanizatsiya jarayonlarining modernizatsiya qilinishi orqali esa mamlakatdagi ushbu sohalarda o'zgarishlar yuzaga kelmoqda:

“Yangi Toshkent” loyihasi – 20 ming gektardan ortiq maydonda quriladigan yangi ma'muriy markaz.

Sanoat zonalarini rivoj - Erkin iqtisodiy zonalar (EIFZ), texnoparklar shaharlar atrofida barpo etilmoqda.

Qishloqdan shaharga migratsiya - Ish o'rinlari, ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlari shaharlarni jozibador qilmoqda.

Infratuzilma loyihalar - Yo'llar, metropoliten, uy-joy qurilishi, suv va elektr ta'minoti modernizatsiya qilinmoqda.

Raqamli infratuzilma - “Aqlli shahar” (smart city) loyihalari, internet qamrovi kengaymoqda.

Shu o'rinda aytish ham kerakki, ushbu tarmoqlardagi rivojlanish bosqichlari to'la ma'noda Urbanizatsiyaning asosiy drayverlaridir.

Rivojlanish bo'layotgan har bir soha yoki tarmoqlarda avvaliga muammoli vaziyatlar va taqchilik kuzatilinishi turgan masala, shunday ekan Urbanizatsiyalashtirish jarayoni ham ba'zi bir muammolarni keltirib chiqaradi

- Uy-joy yetishmovchiligi – Aholining ko'payishi yangi uylarga talabni oshirmoqda.

- Transport tirbandligi – Jamoat transporti yetarli emas, tirbandlik ortmoqda.
- Ekologik bosim – Havoning ifloslanishi, yashil hududlarning qisqarishi.
- Ijtimoiy xizmatlar yuklamasi – Maktablar, bog‘chalar soni yetarli emas.

Urbanizatsiyaning ijobiy tomonlari ham anchagina qulay vaziyatlarni keltirib chiqaradi, masalan: ish o‘rinlarining ko‘payishi, innovatsion va texnologik rivojlanish tezlashishi, ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari yaxshilanishi hamda yangi iqtisodiy markazlar shakllanmoqda (Samarqand, Buxoro, Namangan, Farg‘ona kabi).

XULOSA

O‘zbekiston urbanizatsiya jarayonida faol ishtirok etayotgan davlatlardan biridir. Biroq, bu jarayon faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki muammolar manbai ham bo‘lishi mumkin. Shu bois:

1. Hududlararo balansni saqlash – faqat yirik shaharlarga emas, kichik shaharlarga ham investitsiya jalb qilish;
2. Ekologik urbanizatsiya – yashil shaharlar kontsepsiyasi asosida rivojlantirish;
3. Jamoat transporti islohoti – metro, tramvay va ekologik transport vositalarini keng joriy etish;
4. Uy-joy siyosatini soddalashtirish – ijtimoiy uy-joylar sonini oshirish lozim.

Yuqorida qayd etilganidek, Urbanizatsiya jarayoni mamlakat rivojining asosiy va muhim tarmoqlaridan sanaladi. Shu bois prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida urbanizatsiyada quyidagilar rivojlanmoqda:

- 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan hududiy rivojlanish strategiyasi doirasida urbanizatsiyani jadallashtirish belgilangan.
- Shaharsozlik kodeksi, yer ajratish tartiblari soddalashtirildi.
- Shaharlarga xos bosh reja loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Toshkent viloyatida “Yangi Toshkent” loyihasi – eng yirik urbanizatsiya tashabbusidir (yangi ma‘muriy markaz sifatida rejalashtirilgan).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi: www.stat.uz
2. “Urbanizatsiya va barqaror rivojlanish”, A. Karimov – Toshkent, 2023.
3. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (2024-yil)
4. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi, 2022-yil tahriri
5. UN-Habitat (BMT) – “Urban Development Trends in Central Asia”, 2023-yil hisobot
6. “Yangi Toshkent” loyihasi haqida